

**JADIDLAR QARASHLARIDA MILLIY O'ZLIK, MA'NAVIYAT VA  
MADANIYAT MASALALARI.**

**Patiyev Xoldor Ikromovich**

Termiz davlat pedagogika instituti Falsafa, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası  
o'qituvchisi

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada jadidchilik harakati vakillarining milliy o'zlik, ma'naviyat va madaniyat haqidagi qarashlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Fitrat, Behbudiy, Cho'lpon, Abdulla Avloniy va Is'hoqxon Ibrat kabi jadid ma'rifatparvarlarining asarlari asosida milliy uyg'onish g'oyalari, jamiyatni isloh qilish, ma'rifat va madaniyatni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Maqolada jadidlarning milliy o'zlikni shakllantirishda tarixiy xotira, til, ta'lim va madaniy merosning o'rni haqidagi qarashlari ochib beriladi. Shuningdek, ularning jamiyat taraqqiyotini ma'rifat va madaniyat bilan bog'lagan konseptual yondashuvi tahlil qilinadi. Natijada jadidchilik harakatining milliy uyg'onish jarayonidagi o'rni va uning zamonaviy ahamiyati asoslab beriladi.

*Kalit so'zlar.* Jadidchilik, milliy o'zlik, ma'naviyat, madaniyat, ma'rifatparvarlik, milliy uyg'onish, Fitrat, Behbudiy, Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Is'hoqxon Ibrat, Turkiston, ma'rifat, ijtimoiy islohot

**Kirish.** Jadidchilik harakati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotida yuzaga kelgan muhim ma'rifiy-madaniy oqim bo'lib, u milliy uyg'onish, ma'rifatparvarlik va jamiyatni modernizatsiya qilish g'oyalari asoslandi. Ushbu harakatning asosiy maqsadi xalqni jaholat va qoloqlikdan chiqarish, milliy ongni shakllantirish hamda barkamol avlodni tarbiyalashdan iborat edi.

Jadidlar uchun ma'naviyat — jamiyat taraqqiyotining asosi, madaniyat esa millatning o'zligini belgilovchi muhim omil hisoblangan. Ular yangi usul maktablarini tashkil etish, ilm-fan va san'atni rivojlantirish orqali xalqning ma'naviy darajasini oshirishga intildilar. Shu bilan birga, milliy o'zlikni anglash orqali xalqni birlashtirish, mustaqil fikrlaydigan, ongli avlodni tarbiyalash g'oyasini ilgari surdilar.

Jadidlar faoliyatida milliy o'zlik, ma'naviyat va madaniyat masalalari markaziy o'rin egallab, ular xalqning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va tilini saqlash hamda rivojlantirishni asosiy vazifa sifatida ko'rdilar. Bu jarayon Fitrat, Behbudiy, Cho'lpon, Avloniy va Ibrat kabi adiblarning ijodida chuqur ifodalangan.

**Metodologiya.** Mazkur tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, matn tahlili va kontseptual yondashuv usullaridan foydalanildi. Jadid ma'rifatchilarining asarlari va badiiy merosi milliy o'zlik, ma'naviyat va madaniyat kategoriyalari doirasida tahlil qilindi. Asosiy manbalar sifatida Fitrat, Behbudiy, Cho'lpon, Avloniy va Is'hoqxon Ibrat asarlari o'rganildi.

**Tahlil va natijalar.** Jadidlar qarashida milliy o'zlik xalqning tarixiy va madaniy merosini anglash bilan bevosita bog'liqdir. Fitratning "O'zbek adabiyoti namunalari" asarida bu g'oya quyidagicha ifodalanadi: "o'z tarixiy ildizlari va madaniy merosini chuqur anglagan jamiyatgina milliy uyg'onish bosqichiga ko'tarila oladi". Bu qarash milliy ongni shakllantirishda tarixiy xotiraning hal qiluvchi rolini ko'rsatadi.

Mahmudxo'ja Behbudiy "Padarkush" dramasida jamiyatdagi ijtimoiy illatlarni tanqid qilib, ma'rifat orqali yangilanish zarurligini asoslaydi. Asarda jaholat va befarqlik keskin qoralanadi.

Choʻlponning “Kecha va kunduz” romani milliy uygʻonish va ijtimoiy adolat masalalarini badiiy-falsafiy shaklda yoritadi. Unda: ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik,

milliy qadriyatlarga befarqlik kabi muammolar tanqid qilinadi.

Jadidlar uchun maʼnaviyat jamiyat taraqqiyotining asosi, madaniyat esa milliy oʻzlikni belgilovchi omil sifatida talqin etiladi. Abdulla Avloniy “Madaniyat toʻlqunlari” asarida shunday yozadi: “Bani bashar (Odam bolalari) orasida ham madaniyat toʻlqunlari quvishub va surishub yuriydir”. Shuningdek, tanazzul sabablari quyidagicha izohlanadi: “ijtihod va gʻayratning ozayuvi, ittifoq, insof va adolatning yoʻqoluvi, xalqning ilm-u maʼrifatdan uzoqlashub, buzuvchi ishlarga mayl va ragʻbatlari ortuvidir”<sup>1</sup>.

Abdulla Avloniy fikricha: “Har bir millat maishat tarafidan taraqqiyga yuz qoʻymasa, maʼnaviy tarafdin, yaʼni maʼrifat tarafidan ham taraqqiy qilolmas”. Shu bilan birga, u Gʻarb tajribasini oʻrganish zarurligini ham taʼkidlaydi: “Ovrupolilar madaniyat toʻlqunlaridan qoʻrqmadilar, qochmadilar... bu madaniyat toʻlqunlarini oʻzlarigʻa asir-u musaxxar qilub oldilar”<sup>2</sup>.

Asarda Turkiston jamiyatidagi muammolar ham ochib beriladi: “oʻngimizdan bilimsizlik va jaholat kelub... soʻngimizdan musriflik, faqirlik va bidʼatlar chiqub yoʻlimizni toʻsur”. Shuningdek: “qutulmak-u xalos boʻlmakning faqat birgina chorasi bordurki, madaniyatni qabul qilmak va madaniyatga kirishmakdir”<sup>3</sup>.

Ibratning “Madaniyat haqida masnaviy” asarida madaniyat insonni komillikka yetaklovchi kuch sifatida talqin etiladi:

<sup>1</sup> Avloniy, Abdulla. Tanlangan asarlar: 2 jildlik. Toshkent: Maʼnaviyat, 2009.-B:216

<sup>2</sup> Avloniy, Abdulla. Tanlangan asarlar: 2 jildlik. Toshkent: Maʼnaviyat. 2009.-B:218

<sup>3</sup> Oʻsha asar.Oʻsha joy.



2. Исҳоқхон Тўра Ибрат. Танланган асарлар. — Т.: Маънавият, 2005.—В:68.
3. Абдурашидхонов М. Бизни жаҳолат - жаҳли мураккаб // Абдурашидхонов М. танланган асарлар тошкент, 2003.—В.143-144
4. Benningsen A., Wimbush S. E. Muslim National Communism in the Soviet Union. A. Revolutionary Strategy for the Colonial World. Chicago.1979.—Б. 221.
5. Ersahin S. Turkistonda Islam ve Muslumanlar-Sovyet Donemi/ Ankara.1990.